

Tojiyeva Mubina

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi I-kurs 2-25-guruh talabasi

Annotatsiya: Amir Temur davrida Buyuk ipak yo'lining ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy ahamiyatini shuningdek, bu davrda savdo-sotiq ishlari haqida yozilgan maqola hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, savdo-sotiq, pul, Xuroson, Samarqand, karvonsaroy, Ibn Arabshoh, Xitoy, Klavixo.

Movarounnahr ya'ni hozirgi O'zbekiston hududi Amir Temur davrida xalqaro savdo va madaniy aloqalarni egallashda muhim o'rin tutganligini bilishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek: "Sohibqiron Amir Temur bobomiz mana shu yurtida tug'ilgani, mana shu yurtida yashab, uni yovdan ozod qilgani, buyuk davlat barpo etgani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu ulug' zotni bizga Xudoning o'zi bergan.

Amir Temur o'z davlatini aql-idrok, zakovat va huquqiy asoslarga tayangan holda idora etib, boshqaruvda ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilishni o'zining asosiy burchi deb bilgan. Buyuk bobokalonimiz o'z amirlari va amaldorlarining xalqqa nisbatan nohaq zulm yetkazib qo'ymasligi borasida doimo tashvish chekkan, makr-zulm, riyokorlik kabi illatlarni saltanatga xavf soladigan qusurlar, deb hisoblagan.(2)

Sohibqiron yuqoridagi xislatlar sohibi sifatida yurtni obod etib, uni zamonasining eng ilg'or va buyuk davlatlaridan biriga aylantira oldi. Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida ko'plab madrasalar barpo etish, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Qo'l ostidagi sipohiy va harbiylar, olim-u fuzalo, tabib va tarixchilarni alohida qadrlagan.

Buyuk Ipak yo'li insoniyat tarixdagi eng ulkan iqtisodiy va madaniy arteriya bo'lib, Amir Temur davrida (XIV asr oxiri — XV asr boshi) u mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Temur o'z davlatining markazi — Samarqandni dunyoning iqtisodiy chorrahasiga aylantirishni oliy maqsad qilgan edi.(5)

Yurtimiz o'zining boy tarixi, moddiy va ma'naviy merosi bilan dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan. Ayniqsa, o'rta asrlarda zaminimizda dunyo madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk sarkardalar, olimlar, mutafakkir va allomalarning yetishib chiqqanligini alohida qayd etish lozim. Milliy davlatchiligimiz tarixida ulkan iz qoldirgan shunday shaxslardan biri sohibqiron Amir Temur hisoblanadi. Osiyoning bepoyon hududlarida markazlashgan davlatni barpo etish, ilm-ma'rifat, madaniyat hamda shaharsozlik sohalari rivojida Amir Temurning xizmatlarini alohida e'tirof etmoq joiz.(6)

Buyuk Ipak yo'li insoniyat tarixdagi eng ulkan iqtisodiy va madaniy arteriya bo'lib, Amir Temur davrida (XIV asr oxiri — XV asr boshi) u mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Temur o‘z davlatining markazi — Samarqandni dunyoning iqtisodiy chorrahasiga aylantirishni oliy maqsad qilgan edi.(4)

Insoniyat taraqqiyoti tarixida xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, qadimgi va o‘rta asrlarda savdo yo‘llari nafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki madaniy va ilmiy almashinuvni ham ta‘minlagan. Ana shunday global ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy hodisalardan biri Buyuk Ipak yo‘lidir. Ushbu yo‘l Sharq va G‘arbni birlashtirgan yirik kommunikatsiya tizimi sifatida ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan.(1)

Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tarixida faqat savdo yo‘li sifatida emas, balki xalqlarni yaqinlashtirgan, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlagan noyob tarixiy makon sifatida baholanadi. Shu sababli uning tarixini o‘rganish bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarb hisoblanadi.

Buyuk Ipak yo‘li yagona yo‘nalishdan iborat bo‘lmagan, balki bir-biri bilan bog‘langan ko‘plab quruqlik va dengiz yo‘llarini o‘z ichiga olgan murakkab tizim bo‘lgan. Ushbu yo‘llar orqali Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Arab mamlakatlari va Yevropa o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar rivojlangan. Aynan shu jarayon Buyuk Ipak yo‘lining uzoq asrlar davomida faoliyat yuritishiga sabab bo‘lgan.

Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilik g‘oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Klavixo Samarqand bozorlarida bug‘doy va guruchning mo‘lligi va arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini — atlas, kimxob, har xil ip va jun to‘qima mollar, mo‘ynali va ipakli po‘stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ham ta‘kidlaydilar.(7)

Bu davrda Amir Temur va uning joy Sulton Mahmudxon asir olingan noiblari Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo‘nalgan asosiy xalqaro savdo yo‘li — "Buyuk ipak yo‘li"ni nazorat qilib, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta‘minlashda, rabotlar, qal‘alar, ko‘priklar qurish yo‘lida muhim chora-tadbirlar ko‘rdilar va Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e‘tibor berdilar. Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o‘rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatdi.

Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o‘tmoq lozim. Amir Temurning sa‘y-harakatlari bilan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sohibqiron savdo yo‘llari rivojiga, uning tinchligiga keng e‘tibor berib bordi. Shaxsan o‘zining nazorati ostida savdo yo‘llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta‘minladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Agzamova G.A. "Savdo yo'llari // Temur va Ulug'bek davri tarixi". Toshkent. 1996-yil.
2. Bobur Z.M. "Boburnoma". Toshkent. 1989-yil.
3. Mavlonov O'. "Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari". Toshkent. 2008.
4. Mo'minov I. "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". Toshkent. 1993.
5. Muhammadjonov A. "O'zbekiston tarixi". Toshkent. 2000.
6. Pardayev M. "Buyuk ipak yo'li yoqasidagi Markaziy Osiyo shaharlari". Samarqand. 1994.
7. Xo'jayev A. "Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar". Toshkent. 2007